

HOZIRGI FRANSUZ TILIDA MODAL SO‘Z VA IBORALARNING UMUMIY RIVOJINING XARAKTERLI JIHATLARI

Maxsadxon Abduganiyevna Abdurahmonova

Alisher Navoiy nomidagi

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

ANNOTATSIYA

Modallik kategoriyasi mulohazaning umumiy mazmunini xarakterlovchi muhim belgilardan biri hisoblanadi, va so‘zlovchining ushbu mazmunga munosabatini bildiradi, ya’ni uning voqelikka munosabatini, uni tushunishini ifodalaydi. Modal so‘zlar (lot.modalis-o‘lchov ,usul) so‘zlovchining o‘z fikriga turlicha munosabatini anglatadigan va fikrining aniqligi, rostligi, gumonli yeki shartlilikini ifodalash uchun xizmat qiladigan so‘zlar.

Kalit so‘zlar: modal so‘z, intonatsiya, inkor, so‘roq, tasdiq, gumon, shartlilik

KIRISH

Modal so‘z va iboralarning hozirgi fransuz tilidagi ma’nolari to‘g‘risidagi bu so‘zlarning o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rib chiqishda keltirilgan ma’lumotlar ko‘rsatadi-ki, bu ma’nolar quyidagi asosiy turlarga birlashtirilishlari mumkin: 1) aytilayotganni kuchaytirish, 2) xulosa, 3) aniqlashtirish, 4) zid qo‘yish, 5) taxmin, 6) xabar qilinayotganning bo‘lishi mumkin qulay (yoki noqulay) ta’sirini ifodalash, 7) xabar qilinayotganning ishonchliligini cheklash.

Bu guruhlarining har biri o‘z tarkibida asosiy ma’noning xilma-xil nozik farqlarini saqlovchi so‘z va iboralarga ega. Misol uchun, xulosa kuchaytiruvchi nozik farq bilan bo‘lishi mumkin; qiyoslang: Je ne sais ni comment ni où le trouver. D’ailleurs, mon mari n’a pas besoin de mes conseils, il sait très bien quel est son devoir. /F. Bont xotinining o‘ziga erining amri bo‘yicha “maslahatlar” berayotgan politsiyachiga e’tirozi, uni politsiya topa olmayapti/.

(Bonte, Le chemin, p. 27).

U zidlovchi nozik farq bilan ham bo‘lishi mumkin:

– Suivant son habitude, il fourbissait les armes des ennemis et des bandits nazis. Nous restions, toutefois, inflexibles, inébranlables. /Leon Blyum haqida va kommunistlarning pozitsiyalari haqida/.

(O‘sha joyda, 42-bet).

Kuchaytirish cheklash sifatida berilishi mumkin:

– ... ils cherchent à glisser à Barbentane... quelque chose pour montrer que sur un au moins la conversation demeure possible.

(Ar., Les communistes, I s., II fasc., p. 36).

U yana taxmin sifatida ham berilishi mumkin:

– T’as pas froid, au moins?

(Stil., Le premier, p. 16).

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ayrim guruhlarning mavjud ma’nolarini ko‘rib chiqamiz.

1. Kuchaytirish. Bu unga kiradigan so‘z va iboralar miqdorining eng ko‘p sonli guruhlaridan biridir. Ular orasida biz quyidagilarni uchratamiz: a) -ment suffiksli ravishlar: assurément, certainement, incontestablement, naturellement, simplement, sûrement, vraiment. b) Boshqa ravishlar: certes, surtout, en effet, au moins, du moins, en outre, en plus; v) ravishli iboralar: bien sûr, bien entendu, de toute évidence, sûr et certain.

Bu iboralarning har biri o‘zining asosiy ma’nosiga qarab ma’lum nozik farqqa ega, lekin shu bilan birga ularning umumiy ma’nosi gapning barcha mazmuniga bog‘liq bo‘ladi. Haqiqatan, incontestablement ning qo‘llanilishi xabar qilinayotganga ancha keskin nozik farq bag‘ishlaydi:

– Pourquoi donc l’aventurier avait-il cédé à la dernière minute? Incontestablement parce qu’il savait que le peuple français ne lui pardonnerait pas de venir les mains vides.

(Cathala, Ils trahissent, p. 97).

Naturellement esa boshqa ma’noga ega; u go‘yo o‘z-o‘zidan ma’lum xabarni ta’kidlaydi va ayni vaqtda ancha keskin kuchaytirishni ifodalayji.

– C’est une interdiction pendant le temps de la bataille, naturellement?

(Téry, La porte, p. 159).

Shu guruhning o‘zida o‘ziga xos nozik farqli kuchaytirishni beruvchi, xususan, au moins so‘zini, ma’lumki, o‘z ichiga cheklashni olgan, mulohazani kuchaytiruvchi so‘zni ajratib ko‘rsatish kerak:

–... maintenant que la gaffe est faite, tu ne crois pas qu’on pourrait au moins en profiter ?

(Téry, La porte, p. 160).

Ammo au moins gapning mazmuniga qarab yana zid qo‘yish nozik farqli kuchaytirishni ham bildirishi mumkin:

–Ici c’est pas du luxe, mais au moins ça a ça de bon, t’as pas eu une goutte d’eau. /Tomli turar joyga ko‘chish munosabati bilan qoniqish/.

(Stil, Le premier, p. 29).

2) Xuloṣa. Modal soʻz va iboralarning bu guruhi oʻzining miqdori jihatidan shuningdek koʻp sonli guruhga tegishlidir. Unga -ment suffiksli ravish d cid ment va quyidagi iboralar kiradi: alors, donc, bref, enfin, toutefois, au fond, au reste, du reste, d'ailleurs, en somme, apr s tout,   la fin,   la fin des fins, en tout cas, par cons quent, toute compte fait, de toutes fa ons.

Unga kiruvchi soʻz va iboralar oʻz maʼnolarida, xuddi birinchi guruhdagi kabi, xilma-xil nozik farqlarga ega boʻladilar. Bunday nozik farqlardan, masalan, d'ailleurs uchun xarakterli boʻlgan zid qoʻyish nozik farqini uchratamiz; qiyoslang: bir qator jasoratlar koʻrsatgan ispan respublikasi armiyasining jasur askari haqidagi hikoyaning xulosasi:

– Il a  t  tu  depuis, d'ailleurs, Antonio Coll.

(T ry, La porte, p. 169).

Tarjimada bu yerda d'ailleurs ni zidlovchi “ammo, lekin, biroq” bilan tarajima qilish yaxshiroq, chunki oʻrganish boʻlib qolgan “yaxshisi, qolaversa, yana” qahramonning jasoratlari bilan kelib chiqqan hurmat tuygʻusini bera olmasligi mumkin edi.

Zid qoʻyishning xuddi shunday nozik farqiini, ammo ancha kuchaytirilganini biz “du reste” ravishida ham uchratamiz.

– Il n'y avait d'autres refuGES   Madrid, que les stations du m tro, peu s res du reste.

(T ry, La porte, p. 130).

Soni boʻyicha kam ularga kiruvchi soʻzlar maʼnolarning keyingi uchta guruhi, yaʼni aniqlashtirish, zid qoʻyish va taxmin guruhlari hisoblanadilar.

3) Aniqlashtirish. Bu guruhga -ment suffiksli bir necha ravishlar: essentiellement, notamment, particuli rement, seulement, shuningdek ravishli ibora –   savoir kiradilar.

Bu ravishlar, nutqning barcha janrlarida juda keng tarqalgan seulement dan tashqari, birinchi navbatda mavhum (publitsistik) xarakterdagi nutqda uchraydilar.

Qiyoslang: – Je savais que de m me qu'au temps de la Grande R volution Fran aise, de la R volution bourgeoise, le devoir patriotique pour chaque patriote honn te, c' tait d' tre aux c t s de la France, de m me, depuis la Grande R volution d'Octobre, depuis la R volution socialiste, le devoir pour chaque patriote et notamment pour chaque patriote fran ais, c'est d' tre sans r serve aux c t s de l'Union Sovi tique.

(Cathala, Ils trahissent, p. 5-6).

4) Zid qoʻyish. Bu guruhga bir-biridan aniq ajralib turuvchi ikkita kichik guruhlar kiradilar: ularning bittasini yaxlit butun gapga yoki uning bir boʻlagiga

tegishli bo'lgan so'z va iboralar tashkil qiladilar, boshqasi esa gapning alohida bo'laklarining zid qo'yilishini ifoda qiladi va o'ziga xos sanab o'tishni namoyon qidadi.

Birinchi guruhda biz au contraire, cependant, néanmoins, pourtant, quand même, tout de même larni uchratamiz; ulardan au contraire eng muhim zid qo'yishni namoyon qiladi:

– La situation actuelle ne permet, en aucun cas, d'envisager l'augmentation des ressources. Nous devons au contraire, prévoir leur diminution.

(Laff., Ceux qui vivent, p. 301).

Sependant ravishi esa, o'zining kelib chiqishining (ce pendant – cela pendant = pendant cela) nozik farqini saqlab qolib, uncha muhim bo'lmagan zid qo'yishni ifodalaydi:

–... elle écartait tout ce qui pouvait gêner son bonheur, cependant, pour la mort de Max... elle ne pouvait pas éviter de prendre sa part de deuil.

(Morg., Mauv. gr., p. 77).

Ikkinchi guruhga, fikrlarning rivojlanish tartibini bildiruvchi sanab o'tish guruhiga, asosan quyidagi iboralar kiradilar: en premier lieu – en deuxième lieu, d'une part – d'autre part, d'abord – puis, d'abord – ensuite – enfin, shu bilan birga ushbu qatorning oxirgi bo'lagi o'ziga xos xulosani ifoda qiladi:

Qiyoslang: – J'élève une nouvelle protestation, d'abord parce que, si je dois être emprisonné, ce n'est pas au Cherche-Midi, mais à la prison de la Santé, où tous mes collègues communistes sont arbitrairement détenus...ensuite, parce que je ne dois pas être emprisonné, mais conformément à la loi, remis en liberté.

(Bonte, Le chemin, p. 64).

Bu iboralarni ishlatish orasida alohida farqlar yo'q, biz turli qatorlarning bo'laklari qo'llanilayotgan misollarni ham uchratamiz:

– Ces documents permettent d'établir que l'opération par le Sud était de beaucoup la plus importante, en premier lieu, par le rang des exécutants..., en deuxième lieu, étant donné le souci majeur que ne cessèrent de lui témoigner les dirigeants parisiens. Enfin en raison de ses implications internationales...

(Cathala, Ils trahissent, p. 40- 41).

5) Taxmin. Bu guruhga ham -ment suffiksli ravishlar, ham boshqa ravishlar kiradilar: évidemment, probablement, visiblement, peut-être, sans doute .

Bu guruh kam sonli va unga kiruvchi so'zlarning beqarorligi bilan ajralib turadilar. Misol uchun, évidemment faqat taxminni emas, balki tasdiqni ham bildiradi:

– Évidemment taxmin ma'nosi bilan:

– Rentrer dans une maison, prendre des valises, les emporter quelque part, accomplir cela au grand jour. Évidemment, ça n'est pas difficile.

(Laff., Nous retournerons, p. 18).

– Évidemment tasdiq ma'nosi bilan:

– Rien n'est impossible, évidemment, mais...

(O'sha joyda, 12-bet).

Bunday ikki xil ma'noga sans doute ham egadir.

Taxmin ma'nosi:

– Sans doute veut-il mettre les opérations au compte de son réseau. – C'est possible.

(Laff., Nous retournerons, p. 165).

Tasdiq ma'nosi:

– ... sans doute les Allemands ont nettoyé le terrain pour rendre la surveillance plus facile.

(Laff., Nous retournerons, p. 77).

Reut-être birmuncha boshqa nozik farqqa ega; bu yerda biz, taxmindan tashqari, yana kinoyali xarakterdagi taxminga ham ega bo'lamiz.

Taxmin:

– Peut-être a-t-elle été prise par les Allemands, peut-être a-t-elle péri quelque part ici, dans un camp...

(Tr., Les fantômes, p. 61).

Kinoya:

Uni kun bo'yi yolg'iz qoldirishayotgani haqida shikoyat qilayotgan bemor ayolga murojaat:

– Paulette, quand elle t'apporte une jatte de lait tu ne sais pas le prendre, peut-être?

(Stil, Le premier, p. 17).

6) Xabar qilinayotganning nutq sub'ektiga nisbatan bo'lishi mumkin qulay (yoki noqulay) ta'sirini ifodalash.

Bu guruh juda kam sonli; unga: heureusement (malheureusement), shuningdek par bonheur (par malheur), par chance kiradilar.

Hozirgi kunda bu iboralarning hammasi o'zlarining dastlabki ma'nosini yo'qotganlar, shunga qaramay ular qo'llanilishining chastotaligi ularning hozirgi tilda barqarorligidan dalolat beradi, shu bilan birga hozirgi tilda heureusement (malheureusement) ko'p hollarda endi butunlay so'nib borayotgan ma'no bilan uchraydi:

Qiyoslang: – C’est peut-être la dernière fois qu’elle sert, heureusement / eski jomadon haqida/.

(Stil., La Seine, p. 135).

– J’ai l’intention de rester ici...

– Je ne puis malheureusement te le permettre. /Janjallashib qolgan shaxslar o‘rtasidagi dialogdan/.

(Morg., Mauv. gr., p. 200).

7) Xabar qilinayotganning ishonchliligini cheklash. Ushbu guruh yuqorida ko‘rsatilganlarning hammasidan ham ma‘nosi, ham shakllari bilan farq qiladi. Bu guruhga kiruvchi iboralar shakllari bo‘yicha o‘ziga xos bo‘linmaydigan sintaktik birliklarni namoyon qiladilar. Tuzilishi bo‘yicha ularni ikki guruhga bo‘lish mumkin: 1. Otli iboralar va 2. Fe‘lli iboralar. O‘zlarining ma‘nolari bo‘yicha ikkala guruh shu bilan farqlanadilar-ki, birinchi guruhning iboralari, aytilgan nimaga muvofiq cheklanganligini aniq ko‘rsatib, aytilganni cheklaydilar: à ma connaissance, à mon avis, pour ma part, etc...

–A mon avis, il faut apprendre à haïr.

(Laff., Ceux qui vivent, p. 187).

–... pour moi, je répéterai jusqu’à ma mort que je veux une Franse libre, forte et heureuse.

(Frév., Avec M. Thorez, p. 18).

Fe‘lli iboralarda esa mulohaza nimaga muvofiq cheklanganligini ko‘rsatish mavjud emas:

Elle n’était pas veuve de guerre, juste une divorcée guerre, pour ainsi dire, une veuve moralement.

(Tr., Les fantômes, p. 124).

Tadqiq qilinayotgan so‘z va iboralarning umumiy rivojini kuzatayotib, hozirgi vaqtda mavjud bo‘lgan maxsus etimologik tadqiqotlar bo‘yicha bu qanchalik mumkin bo‘lsa, qayd qilishimiz mumkinki, bu taraqqiyot ikkita yo‘nalish bo‘yicha borgan: yoki konkretan mavhumga o‘tish yo‘li bilan, ya‘ni ma‘lum belgilarning umumlashtirilishini namoyon qilar edi, yoki oldingi ma‘noni, faqat shaklini o‘zgartirib, saqlab qolar edi.

a) Konkretan mavhumga tomon rivojlanish. Ushbu ko‘rinishning eng ilgarigi hosilalaridan biz “pour ma part” iborasini uchramiz. Ma‘lumki, “sa part” birikmasi de predlogi bilan (de sa part) o‘zining to‘g‘ri ma‘nosida IX asrning saqlanib qolgan “Strasburg qasami” deb nomlangan yuridik hujjatga kirgan;

– enfin – “en” et “fin” < lotincha finem;

– au fond; fond < lotincha fundus;

– par chance; chance xalq lotin: cadentia; oʻrta asrlarda suyak oʻyinida qoʻllanilgan, “voqea”, keyin “baxtli voqea” maʼnosini olgan ibora keyinchalik “par” predlogi bilan birikib, modal ibora sifatida qoʻllanila boshlandi;

– en bref; tadqiqotchilar “bref” xususida koʻrsatib oʻtadilarki, dastlab makonga oid (qisqa, kichkina) bu soʻzning maʼnosi erta vaqtga oid (qisqa vaqt oraligʻi maʼnosi) maʼnoning ifodasi boʻlib qoldi, keyin aytilganning toʻgʻrisidagi – “qisqacha aytganda, qisqasi; xullasi kalom, xullas” koʻchma maʼnoni oldi.

b) Toʻgʻri maʼnoning rivojlanishi (kengayishi).

– sans doute - /doute oti XI asr/ uzoq vaqt oʻzining “shubhasiz, albatta, muqarrar” maʼnosini saqlab qoldi. Hozirgi vaqtda sans doute, F. Bryunoning koʻrsatishicha, ayrim hollarda tasdiqning bu maʼnosini saqlab qoladi, ammo koʻpincha faqat imkoniyat, mumkinlikni ifodalaydi: “Il possède encore cette valeur affirmative dans certain cas... Mais le plus souvent sans doute nʼexprime plus que la possibilité ...”

Koʻrib chiqilayotgan asarlarda bu iborada “mumkinlik” maʼnosiga yaqin taxmin maʼnosini uchratamiz (52-53-betlarga qarang);

surtout < sur + tout; -peut-être < pouvoir feʼlining hozirgi zamon 3-shaxs birligi va être feʼli infinitiv shaklda.

XULOSA

Koʻrib chiqilayotgan modal soʻz va iboralarining maʼnolari kengayishini oʻrganish bu maʼnolarning rivojlanish jarayonining oʻzini ham koʻrsatadi: bu maʼnolar munosabat jarayonida rivojlandilar, chunki faqat nutqning umumiy mazmunidagina biz ushbu soʻz va iboralarining maʼnolaridagi farqni topamiz va tushunamiz.

Misol uchun, modal soʻz sifatida xulosaning umumiy maʼnosi bilan qoʻllaniladigan dʼailleurs ravishi (qiyoslang: “On a perquisitionné chez moi deux fois, mais le matériel est bien planqué. Dʼailleurs, pour le moment il nʼ y a pas de possibilité de le mettre ailleurs”. Laff., Ceux qui vivent), xulosa qilinayotganning katta kuchaytirilishining nozik farqiga ega boʻlishi mumkin (qiyoslang: “On mʼa raconté que tu étais un vrai antifasciste. Jʼen suis un, moi aussi, comme dʼailleurs tous les Espagnols dʼici ...” Oʻsha joyda), biroq u, gapning mazmuniga qarab zidlovchi nozik farqqa ham ega boʻlishi mumkin (Qiyoslang: Tirikligida jasoratlar sodir etgan jasur askar haqidagi hikoyaning xulosasi: “Il a été tué depuis, dʼailleurs ...” Téry, La porte.).

Hozirgi fransuz progressiv yozuvchilarining asarlarida uchraydigan modal soʻz va iboralarining yuqorida keltirilgan roʻyxatining koʻrsatishicha, bu soʻzlarning asosiy

ko'pchiligi oldingi davrlarning tilida ham qo'llanilgan. Bu so'zlar orasida qo'llanilishdan allaqachon chiqib ketayotgan modal so'zlarni ham uchratamiz: qiyoslang: kamdan-kam hollarda uchraydigan néanmoins. Ko'rib chiqilayotgan asarlarda kamdan-kam hollarda uchraydigan modal ma'noli néanmoins ravishi qo'llanilishi fakti bilan partant ravishi qo'llanilishining bu asarlarda yo'qligini ham ko'rsatib o'tish kerak.

REFERENCES

1. Turniyozov N.q. «Nutq va uning egotsentrik xarakteri xususida ba'zi mulohazalar» Til va nutq sistem-sath talqinida. Samarqand DChTI, 2005. - B. 21-22 .
2. Yoqubov J.A. «Modallik kategoriyasining mantiq va tilda ifodalanishining semantik xususiyatlari». - T.: Fan, 2005. -B. 224
3. F. Brunot. La pensée et la langue, p. 499.
4. Луғатлар: А. Hatzfeld et A. Darmsteter. Dictionnaire général de la langue française, P.
5. Saodat, S. (2021). The Study of Phraseology and Its Theoretical Features. *Journal of Foreign Language Teaching and Applied Linguistics*, 11, 97-101.
6. Saodat, S. (2022). ИНГЛИЗ ТИЛИДА ИҚТИСОДИЙ ЭВФЕМИЗМЛАРНИНГ КЕЛИБ ЧИҚИШ САБАБИ ҲАМДА УЛАРНИНГ ҚЎЛЛАНИЛИШИ. ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ АХБОРОТНОМАСИ.
7. O. Bloch et W. Wartburg. Dictionnaire étymologique de la langue française, P., 1950
8. A. Dauzat. Dictionnaire étymologique de la langue française, P. E. Littré. Dictionnaire de la langue française, P. Larousse. Grand dictionnaire universel du X IX s., P.
9. Nouveau Petit Larousse illustré. 5^e éd. P., 1948.
10. A. Hatzefeld. Dictionnaire, p. 395. Ўша жойда, 84-бет.
11. O. Bloch. Dictionnaire, p. 195.
12. Sadiqova Shirin Bakhtiyorovna. Bilimingizni sinab ko'ring. O'zbek tilidan test va madhqlar 1/2014 , 6 100.
13. Sadykova, S. B., & Tutchibaeva, S. (2019). К МЕТОДИКЕ ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА В ГРУППАХ С УЗБЕКСКИМ ЯЗЫКОМ ОБУЧЕНИЯ (НА ПРИМЕРЕ ПРЕДЛОЖНО-ПАДЕЖНОЙ СИСТЕМЫ). *Theoretical & Applied Science*, (11), 189-192.